

learning experiences such as: examining the integrated ideology of texts, considering the way they are constructed, positioned and manipulated, and analyzing the power of languages and writing texts that promote equality and change.

In this article we attempted to discuss about different approaches of using literary texts in the classroom. There

are also discussed about scholars' opinion about approaches of teaching with literary texts and we came to the conclusion that working with literary texts not only helps students acquire basic language skills, but also explores the historical, cultural and social contexts in which texts are created and interpreted. This contributes positively to their personal and psychological evolution.

References

1. Barry P. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. Manchester University Press, 2002.
2. Carter R. & Long, M. Teaching Literature. Harlow, 1991: Longman.
3. Carter R. Literature and Language Teaching 1986-2006: A Review. International Journal of Applied Linguistics, 17 (1), -P. 3-13.
4. Divsar H. & Tahriri, A. Investigating the Effectiveness of an Integrated Approach to Teaching Literature in an EFL Context. Pan-Pacific Association of Applied Linguistics, 2009: 2 (13), -P. 105-116.
5. Durant A. Introduction to 'Language Through Literature' Approaches to Teaching Literature in English in L2 Contexts, 1995. -P.291-311.
6. Maley, A. Down from the Pedestal: Literature As Resource. In R.Carter, R.Walker & C.Brumfit (Eds.). Literature and the Learner: Methodological Approaches. Modern English Publications and the British Council, 1989.
7. Lucas M., A. Four Important Factors in Reading. Forum, 1990, 28 (3), 26-30.
8. Savvidou C. An Integrated Approach to the Teaching of Literature in the EFL Classroom. The Internet TESL Journal (12), 2004.
9. Simon Sh. Teaching Literature in ELT/TESOL Classes. -New Delhi: 2006. Sarup & Sons.
10. Van, T.T.M. The Relevance of Literary Analysis to Teaching Literature in the EFL Classroom. English Teaching Forum, 2009, (3), 2-9.
11. Wellek R. & A. Warren. Theory of Literature. Brace and Company, 1994
12. Timucin M. Gaining Insight into Alternative Teaching Approaches Employed in EFL literature Class. Revista de Filología y su Didáctica, 2001. -P.269-293.
13. Tasneen W. Literary Texts in the Language Classroom: A Study of Teachers' and Students' Views at International Schools in Bangkok. Asian EFL Journal, 2010. -P.173-187.

РЕЗЮМЕ. Адабият инглиз тилини ривожлантиришда, аynиқса, мулоқот ко'никмаларини оshирish, маданий онгини yuksaltirish va o'quvchilarni rag'batlantirishda muhim o'r'in tutadi. Ushbu maqolada darslarni o'tkazishda o'qituvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan turli yondashuvlar, shuningdek, chet tili darsida adabiyotni integratsiya qilish usullari muhokama qilingan.

РЕЗЮМЕ. Литература играет важную роль в развитии английского языка, особенно в улучшении коммуникативных навыков, повышении культурной осведомленности и формировании мотивации учащихся. В этой статье рассматриваются различные подходы, которые могут быть полезны учителям при проведении уроков, а также способы интеракции литературы на уроке иностранных языков.

SUMMARY. Literature plays an important role in the development of English language, especially in improving communication skills, raising cultural awareness, and generating students' motivation. This article deals with various of approaches which can be helpful for teachers in conducting lessons and the ways of integrating literature in EFL classrooms.

X.ANDERSENING "BOLALAR GURUNGI" ERTAGINI

PIRLS TOPSHIRIQLARI TUZISH ASOSIDA O'RGATISH

M.Hazratqulov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Samarqand davlat universiteti

Tayanch so'zlar: PIRLS, ertak, tahlil, ijod, adabiy ta'lim.

Ключевые слова: PIRLS, сказка, анализ, творчество, литературное образование.

Key words: PIRLS, fairy tale, analysis, creativity, literary education.

Havot doimo unga peshvoz chiqishimizni va u bizga taklif etavotgan yaxshiliklarga arzirli ekanligimizni his qilishimizni istaydi. Aslida butun olam, koinot har doim ham hamisha bizni qo'llab-quvvatlash uchun shav turadi. Bizlar har birimiz o'z maqsadimiz vo'lida butun havotimiz bilan bir-birimiz orqali bog'langanmiz. Bizning kamchiligimiz shu qonun-qoidalardan bexabarligimizdadir.

X.Andersenning "Bolalar gurungi ertagida insonning xohis istagi, niyati barcha tuvg'ulardan, hatto oliv maqom darajalaridan ham yuksakligi ko'rsatib berilgan. Ertak shunday boshlanadi:

"Bir badavlat savdogar bolalarga zivofat berdi. Zivofat kechasiga boy va dongdor xonadonlarning bolalarini taklif qildi. Savdogarning ishlari yurishib turgan, o'zi ham o'qimishli odam edi.

Uning «aslzodalar» va «ulug'vor boyonlar»dan tanish-bilishlari ko'p edi. Shuningdek, na u va na bu mo'tabar toifaga aloqasi bo'lmagan kishilar bilan ham muomala qil-ar, tanish-bilish orttirar edi.

Xullas, uning uvida kattagina vig'in bo'ldi, lekin vig'ilanlar faqat bolalar edi. Ular tinimsiz javrashar, tillariga kelganini qaytarmay gapirishar edi. Bolalar orasida g'ovat chiroyli, lekin o'taketgan dimog'dor bir qizcha ham bor ekan.

Qizchaning jismiga kibr-havo ataylab kiritilmagan, balki maqto'v-e'zozlar bilan singdirilgan ekan. Yana kimlar

deng, qizchaning ota-onasi emas, unga qaravdigan xizmatkorlar uni shunday «kasal»ga chalintirib qo'vishgan ekan.

Qizchaning otasi kamer-yunker bo'lgan ekan. Qizchaning tasavvurida bu «favqulodda muhim» unvon bo'lib tuyulgan.

- Men kamer-yunker qiziman! - derdi u.

Qizcha boshqa bolalarga o'zining «aslzoda»lardan ekanini, oqsuvaklar nasabidanligini uqtirib, kimki oddiy toifadan bo'lsa, undan biror e'tiborli odam chiqmaydi, derdi. Har qancha o'qima, intilma, o'rganma - baribir qoning toza bo'lmasa, aslzoda bo'lmasang, hech narsaga erisha olmayman, derdi.

- Familiyasi «sen» bilan tamomlanadigan kishilarni tilga olmasa ham bo'laveradi - ulardan odam chiqmaydi! Biz - aslzodalar har qanday «sen»lardan narirroqda, qo'lni belga qo'yib, ularga qivo boqmay turishimiz lozim.

Biroq savdogarning qizi undan raniib qoldi, nega desangiz, uning otasining familiyasi Massen edi. Mana shu zahoti u boshini ko'tardi-da, shunday dedi:

- Mening otamni bilasanmi, otam vuzta bolaning hammasiga novvot sotib olishi voki uni sochib tashlab yuborishi mumkin. Sening otang shunaqa qila oladimi?

- Mana, mening otam esa, - dedi bir vozuvchining qizchasi, - sening otang haqida, hozirgi dunvodagi hamma otalar haqida ham gazetaga vozishi mumkin. Oyim: «Hamma otangdan qo'rqadi», - deydi. Axir gazeta uning

avtganini qilar ekan-da. Shu so'zlardan so'ng qizcha takabburona kekkeyganicha turib oldi, uning kibr-havosiga go'vo olam torlik qilardi".

Kimning uvida nima narsa bo'lsa, shu odam muomalasida, munosabatida uvdagi narsalarni aks ettiradi. Bolalar ham tabiatidan kelib chiqqan holda o'zlarining ota-onalari, ularning vurish turishlariga taqlid qilgan holda suhbatlashdilar. Ularning fikricha kelajakda kim bo'lish, qanday mavqega ega bo'lish nasl-nasab, mansab bilan bog'liqdir. Chunki ularga shunday o'rgatilgan. Ertakni tahlil qilishda suhbat, savol-javob metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilarga quyidagicha savollar berish mumkin:

1. Bolalar o'rtasida nima haqda munozara bo'ldi?

2. Qaysi bolaning gapi sizga voqimadi? Nima uchun?

3. Bolalarning aytgan gaplariga munosabatingizni bildiring.

4. Nima deb o'ylaysiz, insonning kelajagi faqat nasl-nasab bilan bog'liqmi, voki boshqa jihatlari ham muhimmi?

Ertak quyidagi mazmunda davom etadi:

"Devor orqasida kambag'al bir bola turgan ekan, u qiya ochiq turgan eshikdan astagina mo'ralab bolalarga qaradi. Yumushini tugatgach, bolaga qiya ochiq eshikdan vasanib-tusanib olib, o'yin-kulgi qilayotgan bolalarni tomosha qilishga ruxsat berildi. Shuning o'zi ham kambag'al bola uchun katta baxt edi.

- Qani endi men shularning o'rnida bo'lsam! - dedi o'zicha havasi kelib, biroq shu paytda u mahmadonalik qilayotgan qizchalarning gap-so'zlarini eshitib qoldi. Bola ularning gapidan o'sal bo'lib, umidsizlikka tushishi mumkin edi. Nega desangiz, bu bolaning ota-onasida ortiqcha qora chaqa ham vo'q edi-da, gazetaga obuna bo'lishga kelganda, hech imkonini vo'q edi. Bunday odamlar gazeta nashr etishni loaqal xayoliga keltira olarmidi?! Lekin eng vomoni shundaki, otasining familivasi, demak uning o'z familivasi ham «sen» bilan tamom bo'lardi. «Xullas, mendan hech qachon biror durust odam chiqmaydi! - deb o'vladi kambag'al bola. - Mana, baxtsizlik. Lekin mening tomirimdan chinakam toza qon avlanyapti! Bu haqda tortishib o'tirishga o'rin ham vo'q!»

O'sha kuni kechqurun bolalar gurungida mana shunday gap-so'zlar bo'lib o'tgan edi. Oradan ko'p villar o'tib ketdi, o'sha bolalar allaqachon ulg'ayib, katta bo'lishdi. Bu vaqtda o'sha shaharda xazinalar liq to'la bir uv pavdo bo'ldi. Hamma shu uvga kirishni, undagi mo'ijalarni tomosha qilishni istardi, hatto bu yerga o'zga shaharlardan ham odamlar kelishardi.

Xo'sh, savdogar uyiga yig'ilishgan o'sha bolalardan qaysinisi endi bu mening uyim der ekan-a? Bunday qaraganda «falonchi aslzodaniki bo'lishi mumkin», deb aytish turgan gap, lekin bunday emas. Ha, bu uv o'sha kuni kechqurun oshxonada xizmat qilib, eshikdan mahmadonalik qilayotgan bolalarga qarayotgan kambag'al bolaniki!

Ana o'sha bolaning familiyasi «sen» bilan tamom bo'lsa-da, lekin undan katta odam chiqdi".

Bolalar ko'pincha ota-onalarining so'zlarini signal sifatida qabul qiladilar. Biz o'zlashtirib olgan bu "signallar" ichki nutq deb nomlanadigan ichki dialogni yuzaga keltiradi. Ichki nutq zaminida bolaning kelajagi shakllanadi.

Agar inson hayotda baxtli bo'lolmasa, ko'pincha kimnidir ayblashni birinchi planga qo'yib olishadi. Bu muammoni hal qila olmaydi. Ayblash muammoni hal qila olmaydi. Ertagimiz qahramoni boshqalarning gapini, qarashlarini o'z istaklari va orzusidan ustun qo'ymadi. Maqsadga erishish uchun eng birinchi navbatda orzu qila olish lozimligini tushundi va bir kun kelib o'z orzusiga erishdi ham.

Barcha insonlar shuni bilishlari lozimki, havotda nima kasb, ish bilan shug'ullansangiz ham, bankirmisiz, idish yuvuvchimi, inson ichidagi ko'rinmas yashirin donshmandlikni topib olishi kerak. Mana shu donishmandlik insonga

bir umrga vo'l ko'rsatadi, mana donishmandlik insonga ezigulik olib kelishga qodir bo'ladi.

Ertak matni bo'yicha PIRLS topshiriqlari:

1. Bir o'ylab ko'ringchi, insonlar nima uchun har xil toifaga ajratiladi? Sizningcha, bu qanchalik to'g'ri?

2. Hikoyada bir badavlat savdogarning ziyofatida munozara bo'lib o'tadi. Hayotda ham turli xil bazmlarda har xil tortishuvlarning guvohi bo'lganmisiz? Ular asosan qanday mavzuda bo'lar edi?

3. Yig'inda asosan kimlar qatnashdi? Bir o'ylab ko'ringchi, nima sababdan yozuvchi munozara uchun aynan bolalarni tanladi? Testni yeching va fikringizni bayon qiling!

a) o'rta yoshli insonlar

b) faqat kattalardan iborat edi

c) bolalardan iborat edi

d) turli xil yoshdagi insonlar

4. Kibr deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, u insonlarda qanday yo'llar bilan paydo bo'ladi?

5. Hikoyada qizchaning kibrli bo'lishiga nima sabab bo'lgan? Uning o'rnida boshqa bolalar bo'lganda ham kibrli bo'lgan bo'larmidi?

a) oila a'zolari kibrli bo'lgan;

b) maqtov-e'zozlar bilan singdirilgan;

c) kibr unga do'stlaridan o'tgan;

d) qarindoshlarining munosabatlari sabab bo'lgan;

6. Jummalarni ularning mualliflari bilan moslashtiring!

1.Savdogarning qizi	A.Biz-aslzodalar har qanday "sen"lardan nariroqda, qo'lni belga qo'yib, ularga qiy boqmay turishimiz kerak
2.Yozuvchining qizi	B.Mening otam bilasanmi, otam yuzta bolaning hammasiga novvot sotib olishi mumkin
3.Kibrli qizcha	C.Oyim: "Hamma otangdan qo'rqadi" - deydi

7. Hikoyada bolalar munozarasining bosh sababi nima edi? Nima deb o'ylaysiz? Bu bahs uchun arzirli sabab bo'la oladimi?

8. Bir o'ylab ko'ringchi, nima uchun ziyofatda o'tirgan bolalarga bazmda qatnashish baxt emas-u, kambag'al bolaga ochiq eshikdan yasanib-tusanib, o'yin-kulgu qilayotgan bolalarni tomosha qilish katta baxt edi?

Birni ko'rib fikr, birni ko'rib shukur qilmaslik bizning hayotimizga qanchalik yaqin?

9. Sizningcha, odamlarning boylik orttirib, katta mansab egasi bo'lishiga nimalar sabab bo'ladi va nimalar bu narsa uchun ahamiyatsiz? Hikoya bilan bog'lab mulohaza yurit-ing!

10. Bir o'ylab ko'ringchi, hikoya voqealari tasvirini qanday xalq maqollari bilan bog'liqlikda tahlil qilishimiz mumkin?

11. Hikoya so'ngida bolaning boy-badavlat bo'lganligi qanday ta'riflarda keltirilgan? Siz yozuvchining o'rnida bo'lganligizda qanday ta'riflar edingiz?

12. Hikoyadan o'zingizga qanday foydali xulosalar chiqardingiz? Fikringizni hayot va hikoya bilan bog'liqlikda bayon qiling!

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakati muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida "Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", "Nima uchun?", "Nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", "Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiy ertaklar o'rgatilyotganda ko'proq adibning maqsadi, nima demoqchi ekanligidan kelib chiqib yondashilganda maqsad yana-da aniq ko'zga tashlanadi. Bu usul X.Andersen, aka-

uka Grimmlar, A.Pushkin asarlarini o'rgatish borasida ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Ertak tilida shunday so'z va iboralar borki, ular bolaga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Sh.Perroning "Qizil Shapkacha" ertagi aytib berilayotganda Qizil Shapkachaning soddaligi, beg'uborligiga alohida urg'u berish, uning Bo'ri bilan suhbatidagi soddalik va ishonuvchanlikni ko'rsatib bera olish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. O'qituvchi so'zlarga o'quvchilar diqqatini qaratib, ertakni so'zlab berayotganda ulardan nutqda foydalanishlariga erishish zarur.

Andersenning "Bolalar gurguni" ertagida ham o'zi tengi bolalarning suhbatini eshitib turgan xizmatkor bola, tushkunlikka tushib qolmadi, ularni o'zidan yuqori qo'yib, hayotda yengilmadi, aksincha barchasiga mehnat qilib erishish muminligi haqida o'yladi va nihoyat o'z kelajagini yarata oldi.

Adabiyotlar

1. Адизов Б. Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишининг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. 280-б.
2. Аминова Ф. Укувчиларни мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари. Пед.фан.номзоди дисс. Т.: 2007. –
3. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. -Toshkent: «Kamalak», 2016. 464-b.
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология. -М.: «Педагогика-Пресс», 1996. –С. 533.
5. Хусанбоева Қ. Таҳлил – адабиётни англаш йўли. –Тошкент: "Мухаррир", 2013. 432-б.
6. Якобсон П.М. Психология художественного восприятия. - М.: «Искусство», 1964. –С.86.
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Vikipediya>. Vikipediya. Svobodnaya ensiklopediya.

REZYUME. Ushbu maqolada X.Andersen ertagi asosida PIRLS topshiriqlarini tuzish va ertak tahlilini o'tkazish metodlari ko'rsatib berilgan. Ertak tahlilida o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish, mushohada yuritish, munosabat bildirishga o'rgatish borasida muhim tavsiyalar beriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье показаны методы создания заданий PIRLS и анализ сказки по мотивам сказки Х.Андерсена. При анализе сказки даются важные рекомендации по обучению учащихся мыслить, наблюдать и реагировать.

SUMMARY. This article shows the methods of creating PIRLS tasks and analyzing the fairy tale based on H.Andersen's fairy tale. In the analysis of the fairy tale, important recommendations are given on teaching students to think, observe, and react.

БЎЛАЖАК МУҲАНДИСЛАРНИНГ ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ ТРАЕКТОРИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА МУСТАҚИЛ ИШЛАРНИНГ ШАКЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

А.К.Хожиев – докторант

Бухоро муҳандислик-технология институти

Таянч сўзлар: талабанинг мустақил иши, индивидуал таълим маршрути, таълим траекторияси, касбий кўникмаларни шакллантириш, касбий сифатлар, мустақил иш шакллари.

Ключевые слова: самостоятельная работа студента, индивидуальный образовательный маршрут, образовательная траектория, формирование профессиональных навыков, профессиональные качества, формы самостоятельной работы.

Key words: student's independent work, individual educational route, educational trajectory, formation of professional skills, professional qualities, forms of independent work.

Кейинги йилларда мамлакатимизда содир бўлаётган кенг кўламли ўзгаришлар, иктисодиётнинг турли соҳалари учун малакали мутахассисларни тайёрлаш даражаси, таълимнинг мазмуни ва сифатига қўйилаётган талаблардан келиб чиққан ҳолда рақобатбардош кадрларни тайёрлаш тизимини шакллантиришга эътибор ошди. Замонавий технологияларнинг жадал ривожланиши, бозор иктисодиёти шароитида инновацион фаолиятни амалга оширишга қодир бўлган ва касбий муҳитдаги ўзгаришларга (трансформацияларга) тезкор жавоб бериб биладиган мутахассисларни тайёрлаш талабларини қўймоқда.

Юқорида белгиланган вазифаларни амалга оширишда миллий олий таълимни ислоҳ қилиш ва таълим дастурларини амалга ошириш жараёнида замонавий ёндашувлар асосида иш берувчиларнинг талабларини инобатга олган ҳолда талабаларнинг индивидуал таълим траекториясини муҳандислик фанларидан мустақил ишлар билан уйғунлашган ҳолда ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Демак, таълим муассасалари олдида бўлажак муҳандисларнинг шахсий қобилиятлари ҳамда касбий талаблари ва эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда таълимни индивидуallasштириш ва ўқитишнинг янги инновацион шакллари ва усулларини ишлаш зарурати пайдо бўлмоқда. Бу борада талабаларнинг касбий

тайёргарлигининг бир қисми сифатида уларнинг индивидуал таълим траекториясини амалга ошириш имконини берадиган замонавий олий таълим тизими – таъкидлаб ўтилган эркинлик ва имкониятларни тақдим этиш имкониятига эга [3, 6, 13].

Илмий тадқиқотимизнинг асосий мақсади – талабаларнинг индивидуал таълим траекториясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда замонавий ёндашувларни ўрганиш ва мустақил ишларнинг шаклларида самарали фойдаланиш механизмларини аниқлаш бўлиб ҳисобланади. Шунинг таъкидлаш жоизки, мазкур илмий мақола доирасида муаммонинг барча йўналишларини қўриб чиқиш имкони бўлмаганлиги боис, биз талабанинг танланган касб доирасида сифатли касбий кўрсаткичларга эришиши учун бўлажак мутахассиснинг индивидуал таълим траекториясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг асосий векторларидан бири сифатида мустақил таълимни самарали ташкил этиш масалаларига тўхталиб ўтамыз.

Замонавий таълим тизимида талабаларнинг мустақил иши миллий профессионал таълимнинг энг муҳим элементларидан бири бўлиб, у таълим мақсадига эришиш йўлидаги муҳим компонентлардан бири ҳисобланади [5, 7, 12].

Талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш жуда мураккаб ва сермашаққат жараён бўлиб, ўқув фаолиятининг сифати ва самарадорлиги талабаларнинг мустақил ишлашга тайёргарлик даражаси, уларнинг